

**IJRO HOKIMIYATI TIZIMIDA VAZIRLIK LARNING O'RNI VA KONSTITUTSIYAVIY VAKOLATLARI**

Uzbekova Go`zal Murat Qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Davlat boshqaruvi huquqi yo`nalishi magistranti

E-mail: guzaluzbekova3@gmail.com

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyati tizimida vazirliklarning konstitutsiyaviy o'rni hamda ularning huquqiy maqomi tarkibida vakolatlar yig'indisining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya (2023-yil) normalari va PF-269-son (2022) ma'muriy islohotlari kontekstida vazirliklar tushunchasi, ularning Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi o'rni, konstitutsiyaviy va qonuniy vakolatlari, javobgarligi hamda huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari qiyosiy-huquqiy va tarixiy-huquqiy usullar yordamida o'rganilgan. Xorijiy davlatlar (Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, milliy huquqiy tizim uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasi sifatida "Vazirliklar to'g'risida"gi maxsus qonunni qabul qilish, vakolatlarning takrorlanishini bartaraf etish va KPI tizimini joriy etish bo'yicha asoslangan takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** vazirlik, ijro etuvchi hokimiyat, konstitutsiyaviy vakolat, Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvi, ma'muriy islohot, hokimiyatlar bo'linishi, davlat siyosati.

**Аннотация**

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты конституционного положения министерств в системе исполнительной власти Республики Узбекистан и совокупность их полномочий в структуре правового статуса. В контексте новой редакции Конституции (2023) и административных реформ ПУ-269 (2022) посредством сравнительно-правового и историко-правового методов исследованы понятие министерств, их место в составе Кабинета Министров, конституционные и законодательные полномочия, ответственность, а также перспективы совершенствования правового регулирования. Сравнительно проанализирован опыт зарубежных государств (Германия, Франция, Великобритания) и сформулированы практические рекомендации для национальной правовой системы. По результатам исследования выдвинуты обоснованные предложения о принятии специального закона «О министерствах», устранении дублирования полномочий и внедрении системы КРІ.

**Ключевые слова:** министерство, исполнительная власть, конституционные полномочия, Кабинет Министров, государственное управление, административная реформа, разделение властей, государственная политика.

**Abstract**

This article analyses the theoretical and practical aspects of the constitutional position of ministries within the executive power system of the Republic of Uzbekistan and the totality of their powers within the framework of their legal status. In the context of the new edition of the Constitution (2023) and

administrative reforms under Presidential Decree PD-269 (2022), through comparative-legal and historical-legal methods, the article examines the concept of ministries, their place within the Cabinet of Ministers, their constitutional and statutory powers, accountability, as well as the prospects for improving legal regulation. The experience of foreign states (Germany, France, the United Kingdom) is analysed comparatively, and practical recommendations are formulated for the national legal system. As a result of the research, substantiated proposals have been put forward on the adoption of a special law "On Ministries", the elimination of duplication of powers, and the introduction of a KPI system.

**Keywords:** ministry, executive power, constitutional powers, Cabinet of Ministers, public administration, administrative reform, separation of powers, state policy.

### **Kirish**

Demokratik huquqiy davlatning samarali faoliyat ko'rsatishi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlanishi tamoyili asosida tashkil etilgan davlat organlari tizimining muvozanatli ishlashiga bog'liq. Ushbu tizimda ijro etuvchi hokimiyat o'zining strukturasi va funksional qamrovi jihatidan eng kengroq sohani egallaydi. Vazirliklar esa ijro etuvchi hokimiyat tizimining markaziy bo'g'inini tashkil etib, davlat siyosatining sohaviy yo'nalishlarini bevosita amalga oshiradi va davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli davlat-huquqiy islohotlar, jumladan 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va 2022-yilgi PF-269-son Farmon bilan amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar, vazirliklar tizimi va ularning konstitutsiyaviy vakolatlarini tubdan o'zgartirdi. Vazirliklar soni 25 tadan 21 taga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 taga qisqartirildi. Bu jarayonlar vazirliklarning ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi o'rni va konstitutsiyaviy vakolatlarini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yangidan o'rganishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Mavzuning dolzarbligi shunda namoyon bo'ladiki, birinchidan, yangi konstitutsiyaviy normalarning amaliy joriy etilishi vazirliklar faoliyati huquqiy asoslarini tubdan o'zgartirmoqda; ikkinchidan, ma'muriy islohotlar samaradorligi ko'p jihatdan vazirliklarning vakolatlari qanday belgilangani va qanday amalga oshirilayotganiga bog'liq; uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasidagi yangi yondashuvlar (New Public Management, Ressortprinzip, e-government) O'zbekiston huquqiy tizimiga ham izchil tatbiq etilmoqda. Bu omillar mazkur tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi konstitutsiyaviy o'rni va vakolatlarining mazmunini, ularning huquqiy tartibga solinishini, mavjud muammolari va takomillashtirish istiqbollari ilmiy-nazariy hamda qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, tizimli-strukturaviy, formal-yuridik va statistik usullar tashkil etadi. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, konstitutsiyaviy huquq fanining nazariy materiallari hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlilga olingan.

## 1. Vazirlikning ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi konstitutsiyaviy o'rni: nazariy yondashuvlar

Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida "davlat organining konstitutsiyaviy maqomi" tushunchasi keng ilmiy bahsga sabab bo'ladigan kategoriya hisoblanadi. Rus konstitutsiyaviy huquq doktrinasining yetakchi vakili N.A.Bogdanova ushbu tushunchani "davlat organining konstitutsiyaviy-huquqiy holatini, jamiyat va davlat tizimidagi o'rnini, vakolatlari va vazifalarini, boshqa organlar bilan o'zaro munosabatlarni ifodalovchi normativ-huquqiy qoidalarning yig'indisi" sifatida ta'riflaydi<sup>1</sup>. Bu yondashuvga muvofiq, davlat organining konstitutsiyaviy maqomining to'rt asosiy elementi ajratiladi: konstitutsiyaviy-huquqiy tavsif; tarkib va shakllantirish tartibi; vakolatlar majmui; o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari.

Davlat organining "vakolati" tushunchasi nazariyasi konstitutsiyaviy huquq fanining alohida tarmog'i sifatida shakllangan. Yu.A.Tixomirov "vakolat" tushunchasini "davlat organining yuridik vazifasiga muvofiq mas'uliyat doirasida yuridik aniqlangan harakatlar to'plamini amalga oshirish imkoniyati va majburiyati" deb ta'riflaydi<sup>2</sup>. B.M.Lazarev esa boshqaruv organlari vakolati tushunchasiga oid asosli yondashuv ishlab chiqib, vakolatlarni umumiy (umumdavlat ahamiyatga ega) va maxsus (ixtisoslashgan) vakolatlarga ajratadi<sup>3</sup>. Ushbu nazariy yondashuv vazirliklarni ijro etuvchi hokimiyatning maxsus vakolatlarga ega organlari sifatida tavsiflashga asos beradi.

Vazirlikning ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi konstitutsiyaviy o'rnini aniqlash uchun uning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, vazirlik — ijro etuvchi hokimiyatning sohaviy (tarmoq) organi, ya'ni davlat boshqaruvining muayyan sohasini bevosita amalga oshiradi; ikkinchidan, vazirlik yuridik shaxs maqomiga ega, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi; uchinchidan, vazirlikning o'z nizomi, apparati, ramzi mavjud; to'rtinchidan, vazirlik o'z sohasida normativ-huquqiy hujjatlar (qarorlar, buyruqlar) chiqarish vakolatiga ega; beshinchidan, vazirlik Vazirlar Mahkamasi tarkibida bo'lib, uning qarorlarini bajarish bo'yicha javobgardir.

Ushbu xususiyatlar vazirlikni ijro etuvchi hokimiyatning boshqa organlaridan — davlat qo'mitalaridan, agentliklaridan, inspeksiyalaridan, idoralardan farqlab turadi. Vazirlikning eng muhim farqlovchi belgisi — uning Vazirlar Mahkamasi tarkibida konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan o'rni va vazir lavozimi orqali davlat boshqaruvining oliy darajasidagi qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatidir.

## 2. Vazirliklarning ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi konstitutsiyaviy o'rnini huquqiy mustahkamlash

O'zbekiston Respublikasida vazirliklarning konstitutsiyaviy o'rni va vakolatlari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi orqali huquqiy tartibga solinadi: birinchidan, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<sup>4</sup>; ikkinchidan, 2003-yildagi "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun<sup>5</sup>; uchinchidan, Prezident farmonlari va qarorlari; to'rtinchidan, Vazirlar

<sup>1</sup>Богданова Н.А. Система науки конституционного права: дис. ... д-ра юрид. наук: 12.00.02. — М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 2001. — С. 222.

<sup>2</sup>Тихомиров Ю.А. Теория компетенции: монография. — М.: Изд. Тихомирова М.Ю., 2001. — С. 55-58. — ISBN 5-89194-074-4.

<sup>3</sup>Лазарев Б.М. Компетенция органов управления: Правовые проблемы оформления и реализации. — М.: Юридическая литература, 1972. — С. 40-43.

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi 310-II-son "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4636594>

Mahkamasi qarorlari va vazirliklarning nizomlari. Mazkur hujjatlar tizimi vazirliklar faoliyatining ko'p qatlamli huquqiy bazasini tashkil etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 114-moddasiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab beriladi<sup>6</sup>. Bu konstitutsiyaviy norma Prezidentni ijro etuvchi hokimiyatning umumiy yo'nalishini belgilashda yetakchi konstitutsiyaviy aktor sifatida tasdiqlaydi. Vazirlar Mahkamasi esa bu yo'nalishlar doirasida o'z faoliyatini amalga oshirgan holda, o'zining mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organi sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini saqlab qoladi.

Konstitutsiyaning 115-moddasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini sohaviy doiralarda aniq belgilab beradi: iqtisodiyot, ijtimoiy soha, moliya, valyuta-kredit, ekologiya sohasi, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarning amaliy boshqaruvini amalga oshirish<sup>7</sup>. Ushbu norma vazirliklarning konstitutsiyaviy vakolatlari uchun yagona huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi: har bir vazirlik o'z sohasidagi amaliy boshqaruvni Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Bosh vazir va vazirlar lavozimiga tayinlash tartibi Konstitutsiyaning 118-moddasida mustahkamlangan: Bosh vazir nomzodi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan taqdim etiladi<sup>8</sup>. Bu yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan eng muhim demokratik islohotlardan biri bo'lib, parlament demokratiyasi va siyosiy partiyalar rolini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Akademik A.X.Saidov yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi jarayonini tahlil qilar ekan, bu hujjatda davlat hokimiyati organlari tizimi qayta tashkil etilgani va ularning vakolatlari aniqroq belgilab berilganiga e'tibor qaratadi. Olim ta'kidlashicha, Konstitutsiyada moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshib, matn qariyb 65 foizga kengaytirildi. Bu vazirliklar maqomi ham aniqroq belgilanganini ko'rsatadi.

### **3. Vazirliklarning konstitutsiyaviy vakolatlari mazmuni va ularni amalga oshirish mexanizmlari**

Vazirliklarning konstitutsiyaviy vakolatlari mazmuni yetti asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, normativ-ijodiy vakolatlar — qonun loyihalarini tayyorlash, vazirlik nizomlari va idoraviy normativ hujjatlarni qabul qilish. Vazirliklar Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisga qonun loyihalarini taqdim etish huquqiga ega bo'lib, davlat siyosatining huquqiy bazasini shakllantirishda ishtirok etadi. Ikkinchidan, ijro etish vakolatlari — qonunlar, Prezident hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarini bevosita amalga oshirish. Uchinchidan, nazorat-tekshiruv vakolatlari — o'z sohasida qonun ijrosi va idoraviy normativ hujjatlar bajarilishini muntazam nazorat qilish. To'rtinchidan, rejalashtirish va prognoz qilish — sohaviy davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Beshinchidan, kadrlash vakolatlari — vazirlik tarkibidagi xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, ularni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirish (2022-yildagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi). Oltinchidan, byudjet-moliyaviy vakolatlar —

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab beriladi.

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi: Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot, ijtimoiy soha, moliya, valyuta-kredit, ekologiya sohasi, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat hamda boshqa sohalarning amaliy boshqaruvini amalga oshiradi.

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasi: O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taqdim etiladi.

vazirlik byudjetidan foydalanish, mablag'larni samarali taqsimlash, davlat sotib olishlarini amalga oshirish. Yettinchidan, xalqaro hamkorlik vakolatlari — o'z sohasida xalqaro shartnomalarni tayyorlashda ishtirok etish, xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish.

M.M.Inagamova konstitutsiyaviy islohotlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilar ekan, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yangi sifat bosqichiga ko'tarilayotganligini va vazirliklar faoliyatida ochiqlik va shaffoflik prinsiplari kuchaytirilayotganini ta'kidlaydi<sup>9</sup>. Bu yondashuv vazirliklarning konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirishda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining nazorati ostida faoliyat yuritishini taqozo etadi.

Vazirliklar vakolatlarini amalga oshirish bilan birga konstitutsiyaviy javobgarlik prinsipi ham qattiq joriy etilishi lozim. M.A.Krasnov ko'rsatishicha, davlat organlari javobgarligi quyidagi turlarga bo'linadi: konstitutsiyaviy-huquqiy, siyosiy, ma'muriy, intizomiy, jinoyat va fuqarolik-huquqiy javobgarlik<sup>10</sup>. Vazirliklarning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi vazirning lavozimdan ozod qilinishi, parlament tomonidan ishonchsizlik bildirilishi, iste'foga taklif etilishi shakllarida amalga oshiriladi.

Parlament nazorati orqali vazirliklarni javobgar qilish mexanizmi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sezilarli darajada kengaytirilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 93-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha ma'ruzasini har yili Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga eshitish uchun taqdim etadi<sup>11</sup>. Bu konstitutsiyaviy mexanizm vazirliklarning parlament oldida tizimli hisobdorligini ta'minlovchi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **4. Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari kontekstida vazirliklar vakolatlarining qayta belgilanishi**

2022-yil 21-dekabrda qabul qilingan PF-269-son Farmon O'zbekiston ma'muriy islohotlarining yangi bosqichini boshlab berdi<sup>12</sup>. Farmon doirasida ijro etuvchi hokimiyatning yangi modeli shakllantirildi: vazirliklar soni 25 dan 21 ga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 dan 28 ga qisqartirildi, boshqaruv apparati xodimlari 30 foizga kamaytirildi. 12 ta davlat boshqaruvi organi tugatildi, 24 ta organning tashkiliy bo'ysunuvi o'zgartirildi, 20 ta idora to'liq tugatildi. Hukumatda amaldagi 8 nafar Bosh vazir o'rinbosari lavozimidan faqat 4 nafari qoldirildi. Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 269 ta shtatdan 120 tasi qoldirildi.

Ushbu islohotlar mantig'ini chuqurroq tushunish uchun Prezidentning 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga murojaat etish lozim<sup>13</sup>. Mazkur Farmon Hukumat a'zosi bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat organi rahbarining Vazirlar Mahkamasi tarkibiy tuzilmalaridan mustaqil ravishda Bosh vazir bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash tizimini joriy etdi. Bu yondashuv vazir mas'uliyatini sohaviy yo'nalishda chuqurlashtirish va vakolatlarni aniq taqsimlashga qaratilgan: vazir o'z sohasida yagona davlat

<sup>9</sup>Inagamova M.M. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiyat-davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari // "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — inson qadri ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023. — B. 59-64.

<sup>10</sup>Краснов М.А. Ответственность в системе народного представительства (методологические подходы). — 2-е изд. — М.: Институт государства и права РАН, 1995. — С. 84-87.

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi: Vazirlar Mahkamasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha ma'ruzasini har yili Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga eshitish uchun taqdim etadi.

<sup>12</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6324756>

<sup>13</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6369997>

siyosatini olib borish va belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun bevosita javobgar shaxs sifatida belgilandi.

Ma'muriy islohotlarning oltita asosiy yo'nalishi quyidagicha umumlashtiriladi: birinchidan, vazirliklar tizimini optimallashtirish va vazifalar takrorlanishini bartaraf etish; ikkinchidan, vakolatlarni aniq belgilash va davlat funksiyalarining yagona reyestrini joriy etish; uchinchidan, hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish va KPI tizimini amaliyotga tatbiq etish; to'rtinchidan, raqamli boshqaruv konsepsiyasini joriy etish va elektron davlat xizmatlarini kengaytirish; beshinchidan, boshqaruv apparatini soddalashtirish va xodimlarning shtat sonini optimallashtirish; oltinchidan, davlat xizmatchilarining kasbiy malakasini muntazam oshirish va xizmat etikasini mustahkamlash.

Raqamli boshqaruv yo'nalishida erishilgan natijalar diqqatga sazovordir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilgi E-Government Survey hisobotiga ko'ra, O'zbekiston elektron hukumat rivojlanishi indeksi (EGDI) bo'yicha 63-o'ringa ko'tarildi va 0.7999 ko'rsatkichni qo'lga kiritdi, bu esa mamlakatni "Very High EGDI" guruhiga kiritdi<sup>14</sup>. Bu o'sish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ko'rsatiladigan 700 dan ortiq elektron davlat xizmati va vazirliklarning idoralararo elektron hamkorlik tizimiga keng tatbiq etilishi bilan ta'minlandi.

I.U.Sobitov ushbu tendentsiya tahlilida "elektron hukumat" tizimini kengaytirish hukumatni ixchamlashtirishning muhim elementi sifatida vazirliklar faoliyatini optimallashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi<sup>15</sup>. Raqamli platformalar orqali vazirliklar o'rtasidagi koordinatsiya yaxshilanmoqda, fuqarolar uchun davlat xizmatlari soddalashtirilmoqda, davlat boshqaruvi shaffofligi oshmoqda. Bu ma'muriy islohotlar samaradorligining muhim natijalaridan biridir.

## 5. Xorijiy davlatlar tajribasi: qiyosiy-huquqiy tahlil

Xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish O'zbekiston vazirliklarining konstitutsiyaviy vakolatlarini takomillashtirish uchun amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Eng yorqin misol — Germaniyaning federal Hukumati amalga oshirilishi mexanizmidir. Germaniya Asosiy Qonunining (Grundgesetz) 65-moddasi "Ressortprinzip" (vazirlik tamoyili) doirasida quyidagi tartibni belgilaydi: "Ushbu siyosiy yo'nalishlar doirasida har bir federal vazir o'z sohasini mustaqil va o'z mas'uliyati ostida boshqaradi"<sup>16</sup>. Mazkur tamoyil vazirning mustaqil javobgar shaxs sifatidagi maqomini huquqiy darajada mustahkamlaydi va o'z sohasidagi qarorlar uchun shaxsiy javobgarlikni belgilab beradi.

Frantsiya tajribasida 1958-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq Bosh vazir hukumatga rahbarlik qiladi, Davlat kengashi (Conseil d'Etat) esa vazirliklar normativ hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi va ma'muriy nizolarni hal qiladi. Buyuk Britaniyaning Vestminster modelida "jamoaviy javobgarlik" (collective responsibility) tamoyili amal qiladi: barcha vazirlar hukumat qarorlari uchun birgalikda javobgar bo'ladi. AQShda esa vazirliklar (departments) Prezident tomonidan boshqarilib, ularning rahbarlari Senat tomonidan tasdiqlanadi.

Yangi davlat boshqaruvi (New Public Management — NPM) konsepsiyasi xorijiy tajribada vazirliklar faoliyatini takomillashtirishning eng muhim yondashuvlaridan biri sifatida shakllandi. Britaniyalik olim

<sup>14</sup>United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. — New York: UN Department of Economic and Social Affairs, 2024. URL: <https://publicadministration.un.org/egovkb>

<sup>15</sup>Sobitov I.U. "Elektron hukumat" tizimini kengaytirish hukumatni ixchamlashtirishning bir elementi sifatida // КиберЛенинка ilmiy elektron kutubxonasi. — 2024.

<sup>16</sup>Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. Artikel 65 (Richtlinienkompetenz, Ressortprinzip, Kollegialprinzip). URL: [https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art\\_65.html](https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_65.html)

C.Hood 1991-yilgi mashhur maqolasida ushbu konsepsiyaning yetti doktrinaviy elementini ajratib ko'rsatadi: 1) davlat sektorida amaliyotchi kasbiy menejment; 2) aniq standartlar va samaradorlik ko'rsatkichlari; 3) natija nazoratiga e'tibor; 4) boshqaruv birliklarini bo'lib boshqarish (disaggregation); 5) raqobat muhitini yaratish; 6) xususiy sektor boshqaruv uslublarini qo'llash; 7) intizom va resurslarni tejash<sup>17</sup>.

C.Pollitt va G.Bouckaert NPM konsepsiyasining rivojlanishini 30 yildan ortiq kuzatib, davlat boshqaruvi islohotlarining qiyosiy tahlilini taklif qiladi. Ular ta'kidlashicha, davlat boshqaruvi modeli bugungi kunda "toza" NPM modelidan neo-weberian davlat (Neo-Weberian State) va yangi davlat boshqaruvi (New Public Governance) modellariga o'tmoqda<sup>18</sup>. Bu yondashuvlar O'zbekiston vazirliklari uchun ham foydali, chunki ular davlat boshqaruvining nafaqat samaradorligiga, balki qonuniylik, jamoatchilik ishtiroki va fuqarolar manfaatlariga e'tibor berishni talab qiladi.

Xorijiy tajribadan O'zbekiston uchun beshta asosiy saboq olinadi: vazirlarning shaxsiy javobgarligini mustahkamlash (Germaniya Ressortprinzip namunasida); raqamli xizmatlarni keng joriy etish; vazirliklar faoliyatini KPI ko'rsatkichlari orqali muntazam baholash; shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash; vazirliklararo koordinatsiyani elektron platformalar orqali avtomatlashtirish.

## Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari ijro etuvchi hokimiyat tizimining sohaviy organlari hisoblanib, Vazirlar Mahkamasi tarkibida davlat siyosatining muayyan sohalarini amaliy boshqarishni amalga oshiradi. Ularning konstitutsiyaviy o'rni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 114, 115 va 118-moddalarida mustahkamlangan bo'lib, Prezident, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis o'rtasidagi konstitutsiyaviy muvozanat doirasida belgilangan.

Ikkinchidan, vazirliklarning konstitutsiyaviy vakolatlari yetti asosiy yo'nalishni qamrab oladi: normativ-ijodiy, ijro etish, nazorat-tekshiruv, rejalashtirish-prognoz, kadrlash, byudjet-moliyaviy va xalqaro hamkorlik. Mazkur vakolatlarni Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida amalga oshirilib, har bir vazirlik o'z nizomida aniq belgilangan vazifalar bo'yicha faoliyat yuritadi.

Uchinchidan, 2022-yilgi PF-269-son Farmon va 2023-yilgi PF-14-son Farmon ma'muriy islohotlarning huquqiy asosini tashkil etib, vazirliklar tizimini optimallashtirish, vakolatlarni aniqlashtirish va hisobdorlikni kuchaytirish bo'yicha tubdan o'zgartirishlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar yangi davlat boshqaruvi (NPM) konsepsiyasining ko'plab tamoyillari bilan uyg'un keladi.

To'rtinchidan, raqamli boshqaruv sohasida erishilgan natijalar (BMT EGD I 2024 reytingida 63-o'rin, my.gov.uz orqali 700 dan ortiq xizmat) vazirliklar faoliyatini zamonaviylashtirish yo'nalishida muhim qadam hisoblanadi. Biroq vakolatlarning takrorlanishi, KPI tizimining to'liq joriy etilmaganligi, parlament nazoratining yetarli darajada faol bo'lmasligi kabi muammolar saqlanmoqda.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, ushbu takliflar ilgari suriladi:

1. "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari to'g'risida"gi maxsus Qonun loyihasini ishlab chiqish va Oliy Majlisga taqdim etish. Mazkur Qonunda vazirliklarning huquqiy maqomi, ularni tashkil etish va tugatish tartibi, vakolatlari, javobgarligi yagona sistematik tarzda mustahkamlanishi kerak.

<sup>17</sup>Hood C. A Public Management for All Seasons? // Public Administration. — 1991. — Vol. 69, № 1. — P. 3-19. — DOI: 10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x

<sup>18</sup>Pollitt C., Bouckaert G. Public Management Reform: A Comparative Analysis — Into the Age of Austerity. — 4th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2017. — P. 187-194.

2. Vazirliklarning vakolatlari va javobgarligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi konstitutsiyaviy mexanizmni yanada takomillashtirish — har bir vakolat aniq javobgarlik ko'rsatkichi bilan to'ldirilishi lozim.

3. Vazirliklar faoliyatini baholash uchun KPI (Key Performance Indicators) tizimini ishlab chiqish va joriy etish, bunda har bir vazirlik uchun sohaviy ko'rsatkichlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi va yillik audit qilinishi belgilanadi.

4. Parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan deputat surishtiruv va parlament tinglovlari tartibini aniq protseduralar bilan mustahkamlash, vazirliklar hisobotlarini muntazam ko'rib chiqish amaliyotini joriy etish.

5. Vazirliklararo koordinatsiya uchun yagona elektron platformani yaratish, vazifalar takrorlanishini doimiy monitoring qilish hamda davlat funksiyalarining yagona elektron reyestrini Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlash.

6. Vazirliklar normativ-ijodiy vakolatini takomillashtirish — vazirliklar tomonidan qabul qilinadigan idoraviy hujjatlar Adliya vazirligi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi tartibini soddalashtirish va elektron tizimni keng joriy etish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasi vazirliklari faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, ularning konstitutsiyaviy vakolatlarini to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlashga, hamda yangi O'zbekiston davlatchiligini huquqiy davlat sifatida qurish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. — URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi 310-II-son "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4636594>
3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 14-dekabrda 100-I-son "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirda). — URL: <https://lex.uz/docs/-2105726>
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/-6118771>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/3331176>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/-6324756>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/-6369997>

### **II. Ilmiy adabiyotlar:**

8. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: yaratilishi, qabul qilinishi va ijro etilishi. // Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy nashri. — Toshkent, 2024. — URL: <http://nhrc.uz/oz/news/m14206>
9. Inagamova M.M. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiyat-davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari // "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023. — B. 59-64.
10. Sobitov I.U. "Elektron hukumat" tizimini kengaytirish hukumatni ixchamlashtirishning bir elementi sifatida // КиберЛенинка ilmiy elektron kutubxonasi. — 2024. — URL: <https://cyberleninka.ru>
11. Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari // КиберЛенинка ilmiy elektron kutubxonasi. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-ozbekistonda-davlat-boshqaruvi-tizimini-rivojlantirishning-tashkiliy-huquqiy-va-iqtisodiy-asoslari>
12. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida davlat organlari va jamoatchilik nazorati // КиберЛенинка ilmiy elektron kutubxonasi. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekiston-konstitutsiyasida-davlat-organlari-va-jamoatchilik-nazorati>
13. Богданова Н.А. Система науки конституционного права: дис. ... д-ра юрид. наук: 12.00.02. — М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 2001. — 334 с.
14. Краснов М.А. Ответственность в системе народного представительства (методологические подходы). — 2-е изд. — М.: Институт государства и права РАН, 1995. — 188 с.
15. Лазарев Б.М. Компетенция органов управления: Правовые проблемы оформления и реализации. — М.: Юридическая литература, 1972. — 280 с.
16. Тихомиров Ю.А. Теория компетенции: монография. — М.: Изд. Тихомирова М.Ю., 2001. — 355 с. — ISBN 5-89194-074-4.
- III. Xorijiy ilmiy adabiyotlar:
17. Hood C. A Public Management for All Seasons? // Public Administration. — 1991. — Vol. 69, № 1. — P. 3-19. — DOI: 10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x
18. Pollitt C., Bouckaert G. Public Management Reform: A Comparative Analysis — Into the Age of Austerity. — 4th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2017. — 392 p. — ISBN: 9780198795179
19. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. Artikel 65 (Richtlinienkompetenz, Ressortprinzip, Kollegialprinzip). — Bundesrepublik Deutschland. — URL: [https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art\\_65.html](https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_65.html)
20. United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. — New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs, 2024. — URL: <https://publicadministration.un.org/egovkb>.